

MAS'ULIYAT ALANGASI

Berdiyeva Sevara Bayanqul qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti talabasi.

+998937830919. sberdiyeva85@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13958455>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov haqida qisqacha ma'lumot va uning "Qiyomat" asarida keltirilib o'tilgan "Oltovlon va yettinchi" balladasidagi voqealar tahlili, obrazlar haqida izohlar yoritilgan. Shu bilan bir qatorda asarda keltirilgan ramzlar va yozuvchi ilgari surgan bosh g'oya haqida ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Chingiz Aytmatov, "Qiyomat", "Oltovlon va yettinchi", chekist Sandro, Jo'xadze, vijdon va vatan muhabbat, Qizil inqilob.

FLAME OF RESPONSIBILITY

Abstract. This article provides a brief overview of the famous Kyrgyz writer Chingiz Aytmatov and an analysis of the events in the ballad "Oltovlon va yettinchi", reviews of the characters, which are presented in his work "Qiyomat". A parallel reference is made to the symbols presented in the work and to the general idea that the writer put forward.

Keywords: Genghis Aitmatov, "Qiyomat", "Oltovlon va yettinchi", chekist Sandro, Jokhadze, conscience and love of the motherland, Red Revolution.

ПЛАМЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Аннотация. В статье содержатся краткие сведения о знаменитом кыргызском писателе Чингизе Айтматове, анализ событий баллады «Олтөвлон ва еттинчи», цитируемых в его произведении «Киямат», и комментарии о героях. Кроме того, дается информация о символах, представленных в произведении, и основной идеи, выдвинутой писателем.

Ключевые слова: Чингиз Айтматов, «Судный день», «Шестая и Седьмая», чекист Сандро, Джохадзе, совесть и любовь к Родине, Красная революция.

Chingiz Aytmatov qirg'iz yozuvchisi. O'zining asarlari bilan butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Aytmatov o'z asarlarida inson vijdoni, iymoni, diyonati, e'tiqodi kabi g'oyalarni ilgari surgan va tadbiq etgan. Chingiz Aytmatov-millat odami. U o'zining asarlarida vatanga mehr, sadoqat va milliy urf-odat-u analalarni mohirona yoritib berdi. O'zligini angladi, o'zligini sevdi, e'tirof etdi va dunyo e'tiborini qozondi.

Chingiz Aytmatov 1886-yilda “Qiyomat” romanini yozdi va asarida “Oltovlon va yettinchi” nomli qisqa hajimga ega bo’lgan balladasini keltirdi.¹ Tarixan real voqeani aks ettirgan ko`rinsa-da, aslida ballada-muallifning badiiy to`qimasi.

Qisqacha asar mazmuni: “Revolutsiya alanga olgan, qonli grajdalar urushi ketyapti , inqilob dushman to`dalari bilan oxirgi janglarga kirgan, Guruzyaning tarixiy yo`li muqarrar – sovet hokimiyati g`alaba qozonib, eng ovloq tog` qishloqlaridan ham qurollangan aksilinqilobchilarning qolgan qutgan to`dalari siqib chiqarilayotgan paytlar. Ayniqsa, jo`mard Guram Jo`xadze deganning tish tirnog`igacha qarshilik ko`rsatadi.²” Asarda voqealar, qarashlar tag`dirlar zidligi asosida qurilgan. Qizil inqilob tarafdarlarining barchasi Jo`xadzelar uchun dushman edi.

Sandro-cheapist. U yashirinchal Jo`xadze guruhiga kirib olgan va bor mahoratini ishga solib qo`rboshining qo`lostidagi ishonchli yigitlaridan biriga aylangan, lekin Sandroga Sovetlar tomonidan qo`rboshi Joxadze guruhini tugatishdek vazifa yuklangan edi. Sandro shoshqolq emasdi, Sovet tomonidan shunday kuchli tarbiyalangandi faqatgina sabr bilan qulay fursat poyladi.

Pistirmadan omon qolgan 7 kishilik Joxadze jamoasi tog` yon bag`riga joylashadi. Hamma toliqanidan dong qotib uxbaydi, lekin Sandroning bo`yniga yuklatilgan mas`uliyati qo`rboshining esa dushman xafiga bo`lgan xavotiri uyqu bermasdi. Alloh ummatlariga birdek rahmatini yog`dirar ekan, undan barcha ummatlari manfaatdor. Shuningdek, to`lin oy ham bu kechada o`z nurlarini ayamasdan yog`dirardi. Hatto, Jo`xadzedan nega uxmlaganini so`rashganda, oyni sabab qilib ko`rsatadi. Yana bir tomonidan oy shu`lalari bolalarini himoyalayotgan ona mehri singari namayon bo`ladi.

Vatan bilan vidolashish naqadar og`ir tuyg`u. Vatanga muhabbat vaqt va makon tanlamaydi. Donishmandlardan biri shunday degan: “Vatan bir bog`dir, vatanning sodiq farzandlari bu bog`ni o`z yurak qonlari ila sug`armaklari darkordir.³” Shunday ekan suvsiz bog`ni tasavvur qilib bo`lmaganidek Sandroda ham Jo`xadze vatan sog`inchi va armoni bilan Istanbulda yuk tashuvchi bo`lib yurishga, o`zini darveshlikka mahkum qilganidan unga bo`lgan munosabati o`zgardi. Ammo mas`uliyat alangasi shunday shakillangandiki, unga sepilgan har qancha suv o`chira olmasdi.

Yuraklarga sanchilyotgan g`am-qayg`u, hasrat, yer-u osmonning ta`mi qoshilgan vino bilan qalblarda alanga yoqdi. Ovozlari hamohang bo`lib ota bobolari qo`shig`ini kuylayotgan yettovidan biri bu vinodan bebahra edi. Sababi shundaki unda topshiriq degan mas`uliyatlari bir alanganing o`zi yetarli bo`ldi. Faqat va faqat qo`shiq yettovini birlashtirib turardi.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingiz_Aytmatov

² Chingiz Aytmatov “Qiyomat” romanı TOSHKENT G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1989

³ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=390> (Vatanni sevish hikmati)

Sandro topshiriqni xamirdan qil sug`irgandek puxta bajardi va vino ichib ichidagi olovni o`chirdi. O`z vatani yerlarida jonsiz yotgan oltovlonni ko`zdan kechirgach, mauzerni chakkasiga tirab o`q uzdi.

Chingiz Aytmatov “Odam abadiy muammo” maqolasida shunday yozgan edi: “Agar sening vijdoning bo`lsa va sen odam o`ldirsang, keyin o`zingni o`ldirasan. Agar sening vijdoning bo`lmasa, sen tinchgina uxmlayverasan. Hamma masalalarda ham shunday.”⁴ Yozuvchining maqolasidagi bu qarashlari mutolachiga Sandro obraziga singdirilgan yashirin hislarni ochishga yordam beradi. Eng kuchli og`riq bu vijdon azobi, bunday og`riqqa uchraganlar har bir soniyada o`lib tiriladi, umri davomida gulxan o`rtasida kuyib yashaydi.

Oltovlon otib tashlangach yuqorida ona mehri deya qiyoslagan shu'lalar shunday tasvirlanadi: “Oyning tutab yotgan beqaror shu'lalari qo`ynida...”.⁵ Bu tasvirdan so`ng ramziylik to`g`ri tanlaganiga ishonch hosil qilamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, asarda gruzinlar yuksak ma`naviyat vakili sifatida tasvirlangan.

Asarda qo`schiqni kuylanishi miflarga borib taqaladi. “Qo`schiqlar asrlar zulmatida turib yaratganga tavallo qilayotganlar nolalaridan tug'ilgan va ularni yaratgan yo`qdan bor qilib, so`ng uni ruhoni mavjudiyatga aylantirgan edilar. Ular o`zlarini yorug` dunyoda juda yolg`iz his qillardilar, yolg`iz qo`schiqlarda va duolardagina ularni topamiz deb ishonardilar.”⁶ Jo`xadze jamoasi ham yolg`iz o`zлari qolgandi va ota- bobolaridan qolgan qo`schiqlarni kuylab, mana shu yolg`izlikdan biroz bo`lsada uzoqlashishgandir.

Balladani ikki nutq, ya`ni qo`rboshining so`zlangan, chekistning so`zlanmagan nutqi tutib turardi. Mohiyatan olib qaraydigan bo`lsak bular bir-biri bilan uyg`unlashadigan nutq edi.

Chekist obrazi ko`proq harakatlari bilan ochib berilgan, qo`rboshi esa monologlari bilan.

Asarning bosh g`oyasida vatan mehri va vijdon turardi.

REFERENCES

1. Chingiz Aytmatov “Qiyomat” romani TOSHKENT G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1989-yil
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingiz_Aytmatov
3. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=390> (Vatanni sevish hikmati)
4. <http://t-science.org/arxivDOI/2019/11-79/PDF/11-79-27.pdf>

⁴ <http://t-science.org/arxivDOI/2019/11-79/PDF/11-79-27.pdf>

⁵ Chingiz Aytmatov “Qiyomat” romani TOSHKENT G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti 1989

⁶ <https://kitobxon.com/oz/kitob/qiyomat-2>

5. “Oltovlon va yettinchi” hikoyasidagi ijtimoiy yuk” maqola
6. <https://kitobxon.com/oz/kitob/qiyomat-2>